

AKSIONERLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSION MULK HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Muzrapova Shahnoza Saydullaevna
Termiz Davlat Universiteti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada so'nggi o'zgarishlar va joriy islohotlar dasturini amalga oshirishdan kelib chiqqan holda, O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlariga korporativ boshqaruv tizimini tadbiq etish, aksionerlik jamiyatlarida investitsion mulk hisobini takomillashtirish tamoyillariga muvofiqligini tahlil qilindi va ko'rib chiqildi.

***Kalit so'zlar:** aksiyadorlik jamiyati, mas'uliyati cheklangan jamiyat, tamoyillar, investitsion mulk, takomillashtirish.*

ABSTRACT

In this article, on the basis of recent changes and the implementation of the current reform program, the application of the corporate governance system to joint-stock companies of Uzbekistan, compliance with the principles of improving the accounting of investment property in joint-stock companies is considered. analyzed and reviewed.

***Key words:** joint-stock company, limited liability company, principles, investment property, improvement.*

Bugungi kunda biznesni muvaffaqiyatli yuritish uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Aslida, har qanday biznesni ma'lum mablag'larni investitsiya qilish va investitsiya qandaydir daromad keltirishini kutish jarayoni sifatida ko'rish mumkin.

Moliyaviy investitsiyalar investitsion mulk bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, aksiyadorlik jamiyatlarida yoki korporatsiya aktsiyalarini sotib olgan investor moliyaviy sarmoya kiritadi. Korporatsiya aktsiyalarni sotishdan tushgan mablag'ni yangi asbob-uskunalar sotib olishga yo'naltirish orqali real sarmoya kiritadi.

Maqsadlarni belgilash, investitsiya siyosatini shakllantirish va amalga oshirish muammolarini hal qilish, shuningdek, moliyaviy qo'yilmalarni baholash va hisobga olish muammolarini hal qilish uchun ularning tasniflash xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Rivojlangan iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun korxonalarining o'z xo'jalik faoliyatini moliyalashtirish jarayonida bozorning

turli vositalari va mexanizmlaridan moslashuvchan foydalanish imkoniyati alohida ahamiyatga ega. Mukammal bozor sharoitida, turli xil moliyaviy vositalar uchun teng soliq stavkalari va tartibga solish choralari mavjud bo'lmaganda, korxonani moliyalashtirishning har qanday tuzilmasi uning faoliyati natijalariga va rentabelligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Biroq, real sharoitda korxonalar ko'pincha turli xil risklarga duch keladilar, bu esa moliyalashtirish shakllari va manbalarining ma'lum bir iyerarxiyasiga, shu jumladan qimmatli qog'ozlar bozorining moliyaviy vositalaridan foydalanishga olib keladi.

Kompaniya uchun biznes yuritishning juda keng tarqalgan shakli bu boshqa kompaniyalar faoliyatiga investitsiya qilishdan iqtisodiy foyda olishdir: aksiyalarni, boshqa kompaniyalarning ustav kapitalidagi ulushlarni sotib olish, kapitalda ishtirok etmasdan qo'shma korxonalar yaratish, boshqa kompaniyalar tomonidan foydalanish uchun mo'ljallangan aktivlar va boshqalar. Bunday operatsiyalar ma'lum moliyaviy natijalarga erishish istiqbollari bilan birgalikda korporativ munosabatlarni o'rnatish imkoniyatini beradi. Agar kompaniya ko'chmas mulkka bo'sh pul mablag'larini kiritisa, bunday investitsiyalar aktivlarning o'ziga xos turi - investitsiya mulki sifatida tasniflanadi.

Investitsion mulk - korxonada faoliyatida foydalanish uchun mo'ljallanmagan yoki oddiy xo'jalik yuritish jarayonida sotish uchun mo'ljallanmagan mulkka investitsiya hisoblanadi. U moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha mulkdor yoki ijarachi ixtiyorida bo'lgan, ijara to'lovlari, mulkni baholashdan daromad olish uchun foydalaniladigan, lekin ishlab chiqarish va sotish jarayonida ishtirok etmaydigan yer uchastkalari, binolar ma'muriy maqsadlarda foydalanilmagan, ushbu tashkilotning oddiy faoliyatida sotish uchun mo'ljallanmagan tovarlar, ishlar, xizmatlar yoki binolarning qismlarini o'z ichiga oladi.

Investitsion mulkni hisobga olish muammolarini standartlardagi farqlar, tasniflash, baholash va axborotni oshkor qilish jihatlari bilan taqqoslash maqsadga muvofiqdir. Qayta tasniflash bilan bog'liq masalalar bir-biri bilan chambarchas bog'liq va tasniflash bilan birga ko'rib chiqiladi, investitsiya mulkini tasarruf etishni hisobga olish tamoyillari asosiy vositalarga nisbatan qo'llaniladigan prinsiplardan sezilarli farq qilmaydi. Lekin birinchi navbatda, biz investitsiya mulkini umuman hisobga olish nuqtai nazaridan buxgalteriya hisobi qoidalarini Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bilan uyg'unlashtirish jarayoniga xos bo'lgan muammolarni ko'rib chiqamiz.

Korporatsiyalar tomonidan kapital jalb qilishning zamonaviy shakllari va usullari tizimida an'anaviy ravishda eng ishonchli va barqaror ichki investitsiya

manbai hisoblangan o'zini o'zi moliyalashtirish muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, bozor iqtisodiyoti sharoitidagi mamlakatlarda ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi ishlab chiqarish sohasiga tashqi manbalar hisobidan doimiy ravishda qo'shimcha investitsiya resurslarining kirib kelishini va keyinchalik ulardan milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlarida samarali foydalanishni taqozo etadi.

Investitsion mulkni hisobga olish va hisobot berishga yondashuvlarni tartibga soluvchi asosiy standart "Investitsiya mulki" xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bo'lib, u amaldagi Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini takomillashtirish loyihasi doirasida o'zgartirilgan. Agar kompaniya standartning o'zgartirilgan qoidalarini belgilangan muddatdan oldinroq qo'llashga qaror qilsa, moliyaviy hisobotga eslatmalar standartdan ilgari qo'llanilganligini aks ettirishi va o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatadigan ko'rsatkichlar qanday aks ettirilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni standartning oldingi versiyasining qoidalari bilan oshkor qilishi kerak.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining yangi tahriri operatsion lizing bo'yicha olingan mulkni investitsiya mulkiga kiritish bo'yicha bir ma'noli qoidani o'rnatadi. Agar investitsiya mulkini belgilash bo'yicha barcha talablar bajarilgan bo'lsa va lizingga olingan aktivlar adolatli qiymati bo'yicha tan olinsa u investitsiya mulki sifatida tasniflanishi mumkin.

Har bir ijaraga olingan mulk alohida hisobga olinishi va tasniflanishi kerak. Biroq, operatsion lizing bo'yicha saqlanadigan va investitsiya mulki sifatida tasniflangan mulk adolatli qiymat bo'yicha hisobga olinganligi sababli, boshqa barcha investitsiya mulki ham adolatli qiymat bo'yicha baholanishi kerak.

Investitsion mulkdan farqli o'laroq, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari egasi egallagan mulkni hisobga oladi. U moliyaviy lizing shartnomasi bo'yicha egasi yoki lizing oluvchining ixtiyorida bo'lgan, sotish uchun tovarlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqarish va sotish uchun yoki tashkilotni boshqarish uchun mo'ljallangan mol-mulkni o'z ichiga oladi.

Investitsion mulkdan kelib chiqadigan pul oqimlari ko'pincha korxonalar aktivlarining qolgan qismi bilan bog'liq emas. Ishlab chiqarish va sotish jarayonlarida asosiy vositalar tomonidan yaratilgan pul oqimlari shu maqsadlarda foydalaniladigan boshqa mulkka ham tegishli hisoblanadi. Xuddi shu narsa egasi egallagan mulk sifatida foydalaniladigan har qanday mulkka ham tegishli.

Alohida ob'ektlar, masalan, binolar, qisman ijaraga berish yoki kapital qiymatini oshirish uchun, qisman tovarlarni ishlab chiqarish va sotish yoki xizmatlar ko'rsatishdan olingan daromadlar uchun ishlatilishi, buxgalteriya hisobining turli toifalari bo'lishi mumkin. Agar xizmatlar qiymati yoki boshqa daromadlar umumiy

daromadning nisbatan ahamiyatsiz qismini tashkil etsa - bu holda ob'yekt investitsiya mulki sifatida tasniflanadi. Eng yaxshi variant - bu binoni qismlarga bo'lib baholash va shunga mos ravishda, investitsiya qiymatiga yoki egasi egallagan mulkka tegishli binoning qiymatini alohida hisobga olish bo'ladi.

Tashkilot mulkni investitsiya mulkidan tovar-moddiy zaxiralarga faqat undan foydalanish usuli o'zgargan taqdirdagina qayta tasniflashiga e'tibor qaratish lozim. Bunday o'zgarish, masalan, aktivni keyinchalik sotish maqsadida takomillashtirishning boshlanishi va shu bilan birga, bu sabab-oqibat munosabatlarining mavjudligi qat'iy majburiyat hisoblanadi. Agar investitsiya mulkni avval yaxshilanmasdan sotish to'g'risida qaror qabul qilingan bo'lsa, u holda u zaxiralar sifatida qayta tasniflanmaydi va aktiv sotilgunga qadar investitsiya mulki sifatida tan olinadi. Shunga o'xshash vaziyat, korxonada mavjud investitsiya mulkni keyinchalik xuddi shu ob'yekt sifatida foydalanish uchun rekonstruksiya qilishni boshlaganda yuzaga keladi. Biroq, investitsiya mulki o'z maqomini saqlab qoladi.

Agar korxonada investitsiya mulkni tannarxi bo'yicha hisoblasa, qayta tasniflash mulkning balans qiymatini o'zgartirmaydi. Agar ushbu mulk qayta tasniflangandan so'ng adolatli qiymat bo'yicha hisobga olinsa, tovar-moddiy zaxiralar yoki asosiy vositalarning qiymati (egasi egallab turgan mulk) investitsiya mulkning undan foydalanish shakli o'zgargan sanadagi adolatli qiymati bo'ladi.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida investitsiya mulkni aniqlashda moliyaviy mutaxassisning professional fikriga tayanish kerakligini ko'rsatadi, u investitsiya mulkni farqlash mezonlarini, investitsiya mulkni hisobga olish siyosatini, shuningdek uning metodologiyasini ishlab chiqishi kerak va batafsil bayon qilinishi, aniqlanishi va oqilona mulohazalar bilan tasdiqlanishi shart deb belgilaydi.

O'zbekiston standartlari bo'yicha investitsiya mulkni hisobga olishning asosiy va aniq muammosi shundaki, investitsiya mulki asosiy vositalardan buxgalteriya hisobi qoidalariga ajratilmaganligi sababli, investitsiya mulkni hisobga olishni ushbu aktivning xususiyatlari tartibga soluvchi qoida mavjud emas.

Korxonalar faoliyatini boshqarishda moliyaviy natijalarning shakllanishi va moliyaviy vositalar samaradorligini ifodalovchi muhim ko'rsatkichi - foydaning roli oshib boradi. Chunki foyda korxonaning kelajakdagi rivojlanishi va boshqaruvida asosiy moliyalashtirish manbaidir.

Korxonalarda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot moliyaviy yil daromadlari, xarajatlari va sof foydani yoki zararni ko'rsatadi.

Ichki nazorat moliyaviy hisobotning ishonarliligi, faoliyatning samaradorligi va qonun hamda me'yoriy hujjatlarga muvofiqligi masalalari bo'yicha korxonaning

maqsadlariga erishishga nisbatan ishonch hosil qilish uchun korxonaga rahbarlik qilishga javobgar shaxslar tomonidan ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

Ichki nazorat tizimi quyidagilarni ta'minlashi kerak:

- ✓ rahbariyat siyosatiga (strategiyasiga) amal qilinishi;
- ✓ mulk va axborotlarning muhofazasini ta'minlashi;
- ✓ axborotlarning o'z muddatida berilishi va ishonchliligi;
- ✓ qonunchilik talablarining bajarilishi.

Bundan tashqari, aksiyadorlik jamiyatlarida samarali korporativ boshqaruvni joriy etishda insayderlik tamoyillaridan ham foydalaniladi. Bu tamoyilda muhim voqealar va dalillar haqidagi konfidensial xususiyatiga ega bo'lgan axborotlarni biluvchi xodimlar o'z bilimlarini fond bozorida foyda topish yoki zarardan qochish maqsadida ishlatishi orqali aksiyalarni sotib olayotgan va sotayotgan hamda insayderlik axborotlarni bilishda ustunlikka ega bo'lmagan oddiy investorlarga zarar keltiriladi.

REFERENCES

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova. www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 6 maydagi O'RQ-370-sonli «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni, 3-modda. www.lex.uz
3. “Investitsion mulk” 40-sonli Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standarti.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF 60-sonli farmoni “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”.
5. Абдуллаева Т.М., Болтабоев Х.С. (2020). Проблемы совершенствования учета инвестиционной собственности и Основные отличия учета инвестиционной собственности. Известия вузов. Инвестиции. Строительство. Недвижимость. №3. 7-13.
6. Badalov M.A. (2022). Aksiyadorlik jamiyatlarida xarajat va daromadlarni shakllantirishda moliyaviy hisobotning roli va ahamiyati. Ta'lim fidoyilari, 16 (3), 183-190.